

**TOKUTOMI ROKA IJODIDA DAVRIY O'ZGARISHLAR AKSI.***Egamova Kamola Akmal qizi**"Alfraganus university" nodavlat tashkiloti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** 1868-yilda Yaponianing nafaqat siyosiy, ijtimoiy -iqtisodiy, balki madaniy-ma'rifiy holatini tubdan o'zgartirib yuborgan Meyji islohoti juda ko'p sohalarga ilm-fan yutuqlarining kirib kelishiga sababchi bo'lgan bo'lsa-da, oddiy xalq zahmatlarini yengillashitira olmadi. Xalq Meyji islohotidan kutgan, ammo erisha olmagan orzularni o'z asarlarida mujassam etgan yozuvchilardan biri Tokutomi Roka edi.

**Kalit so'zlar:** Meyji, "Meirokusha", "ijtimoiy roman", "oilaviy roman", adabiy tanqidchilik

Tokutomi Roka - yangi yapon adabiyotining buyuk yozuvchisi, o'z davrining mashhur ijtimoiy islohotlar targ'ibotchisi va bir qancha yapon ziyyolilari tan olgan hayot o'qituvchisi. Tokutomi zamonaviy Yaponiya bilan mutlaqo bir xil yoshda. Ya'ni u 1868 yil, Meyji islohoti tufayli Yaponiya yangi o'zgarishlar ostonasiga qadam qo'ygan yilda tug'ilgan. Kyushu orolining chekka qishloqlaridan birida, Kumamoto prefekturasining Minamata qishlog'ida kichik yer egasi oilasida tug'ilgan Kenjiro keyinchalik yapon adabiyotining eng buyuk yozuvchilaridan biriga va yapon ijtimoiy tafakkurining yetakchilaridan biriga aylandi. U Tokutomi familiyasi va adabiy taxallusi Rokani birlashtirib ijod qilgan.

1878 yilda, ya'ni Kenjiro endigina o'n yoshga to'lganida, u akasi Ichiro bilan birga Kiotoga, u yerda endigina ochilgan, ammo allaqachon mashhur bo'lgan Doshisha ("Hamfikrlar jamiyati") kollejiga yuboriladi. Bu kollej asoschisi Niijima bo'lib, u Amerikada o'n yil davomida istiqomat qilgan. Yurtiga qaytgach esa, Amerikada orttirgan bilim va tajribalarini hamyurtlari bilan bo'lishish maqsadida, kollej barpo qiladi. Uning maktabida, avvalo, xristian dinining asosiy g'oyalari tushuntirilar edi. Ammo uning o'quvchilari nafaqat xristian dinidan bilim olishar, balki ingliz tili, Yevropa liberalizmi yoki Amerika demokratiyasi ruhidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta'limotlarini ham puxta o'rganishar edi. Tokutomi ana shunday muhitda ta'lim olgani uning keyingi faoliyatiga katta ta'sir o'tkazdi.<sup>1</sup>

1887 yilda u Kiotoni ham, Doshishani ham tark etib, Kumamotoga qaytdi va u yerda ingliz tilini o'rgatish orqali kun kechirdi. Dosisha maktabi tufayli yosh yigit Tokutomida atrofidagi hayotga qiziqishi ortdi, sodir bo'layotgan hamma narsaga o'tkir

<sup>1</sup> Конрад Н.И. Японская литература. От Кодзики до Токутоми – М.: Художественная литература, 1974. – 517 с.

sezgirlik bilan nazar solib keng ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishni orzu qila boshladi.

Lekin Bularning barchasini amalgalashirish Kumamotoda imkonsiz bo'lgani sababli u Yaponianing eng faol nuqtasi bo'lgan poytaxt Tokioga yo'l oldi. Tokutomi uchun bu qiyin kechmadi. Chunki Tokoida bir vaqlar Doshishada u bilan birga o'qigan katta akasi, Tokutomi Iichiro (Soho) anchadan beri yashab itimoiy faoliyat olib borar edi. Tokutomining Tokioga borgan vaqt milliylik harakatlarining kuchaya borayotgan vaqtiga to'g'ri keldi. Yapon kapitalizmi feudal elementlar bilan chambarchas bog'liq edi. Kapitalizmning oyoqqa turib olishiga talaygina mablag' zarur bo'lib, bu mablag'ni qishloqlarda feudal tuzumni saqlab qolish orqali qo'lga kiritish osonroq edi.

Meyji islohoti mamlakatda demokratik institutlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berishi kerak edi. Ammo aslida hokimiyat yarim feudal tuzumni saqlab qolib, xalqni ezishda davom etgan guruh qo'liga o'tdi. Aynan shu guruh Yaponiyada yevropalashishga qarshi bo'lib, mamlakatda "milliylik" harakatini keng yoya boshladi. Milliylik harakatining asosiy vazifalaridan biri avvalgi feudal g'oyalar bo'lmish sintoizm, buddizm, konfutsiychilikka chuqurroq e'tibor qaratish edi. Tokutomi esa aynan shunday milliychilikka qarshi kurashayotgan guruhga qo'shildi. Bu guruh vakillari "Minyusha" ("Millat do'sti") deb nomlanib, ular "Kokuminno tomo" ("Xalq do'sti) gazetasini chop etishardi. Guruh o'sha davrning eng ma'rifatli, eng ilg'or siymolaridan iborat edi. Bular o'sha davrning yirik jurnalistlar va jamoat arboblari Tokutomi Soxo, Takekoshi Yosaburo, Yamaji Aizan, Kitamura Tokoku, shuningdek, yangi she'riyat asoschisi va keyinchalik yapon burjua realistik romanining asoschilaridan biri Kunikida Doppo edi.<sup>2</sup>

"Minyusha" guruhi murosa pozitsiyasida harakat qildi. Bir tomondan, u millatchilikka qarshi norozilik bildirgan bo'lsa, boshqa tomondan, yevropaliklarga ko'r-ko'rona taqlid qilishdan ogohlantirdi. Boshqa so'z bilan aytganda, u ikki jahbada: yevropachilik va millatchilikning ekstremal ko'rinishlariga qarshi kurashishga harakat qildi. Ammo baribir, ular ko'proq yevropalashish tarafдорлари hisoblanar edilar.

Tokutomi Kenjiro Yevropa demokratiyasi va Yevropa liberalizmi buyuk vakillarining tarjimai holini o'rganishni boshlaydi. Uning e'tiborini birinchi bo'lib ingliz liberal harakati arboblari bo'lmish Jon Bright, Richard Cobden va Gladstone tortdi. U "Kokumin no Tomo" jurnalida bu odamlarga bag'ishlangan insho-biografiyalarni e'lon qila boshladi. Ammo uning nafaqat siyosiy qarashlariga, balki ijodiga katta ta'sir o'tkazgan inson Tolstoy bo'ldi. Tokutomi ijodiy faoliyatining boshida rus adabiyoti ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Tolstoy unga birinchi navbatda voiz sifatida ta'sir qilgan bo'lsa, san'atkor sifatida unga asosan Turgenev ta'sir qiladi.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Григорьева Т. П. К вопросу о развитии теории реализма в японской литературе // Японская литература. М.: Исследования и материалы, 1959.

<sup>3</sup> Григорьева Т. П. Японская литература XX века. М.: Художественная литература, 1983.

90-yillari oxirida Tokutomi yozuvchi ijodkor sifatida faoliyatini boshlagan davrda Yaponiyada yangi siljishlar boshlangandi. Adabiyot yaratuvchisi va uni rivojlantiruvchi kuch, asosan, kichik burjuaziya vakillari bo'lib, ular orasida jurnalistlar, yozuvchilar, o'qituvchilar, shifokorlar, advokat va boshqalar bor edi. Urush natijasida bu ziyolilarning ko'pchiligi nihoyatda og'ir ahvolga tushib qolishdi. Urushdan keyin yashash narxining sezilarli darajada oshishi, siyosiy reaksiya ko'laming kengayishi kichik burjuaziya rivojlanish yo'liga to'siq bo'ldi. Bu holat voqelikni yangicha yo'l bilan o'rganish sari turtki bo'lib adabiy tanqid kuchayishiga olib keldi.

90-yillar oxiridagi yapon tanqidchilari shunday yozadilar:

"Haqiqat tomon boring. Haqiqat bilan bevosita aloqada bo'ling. Inson hayoti nimadan iboratligiga dadilroq nazar soling, mayda-chuyda narsalardan uzoqlashing va hayotni chuqur, har tomonlama o'rganishga o'ting. Ijtimoiy va falsafiy asarlar yozing" Shundan so'ng, g'oyalarning haqiqat bilan to'qnashuvini ko'rsatishni maqsad qilgan "Mafkuraviy hikoya" deb ataluvchi asarlar paydo bo'ladi. "Hayotning chuqurliklari" haqidagi hikoya paydo bo'lib, unda, asosan, inson mavjudligining qorong'u tomonlarini ochib berishga harakat qilingan. Yangi sharoitda oila muammosini o'rtaqa qo'yadigan "oilaviy roman" paydo bo'ladi. Keng ijtimoiy-siyosiy muammolarni tasvirlovchi "Ijtimoiy roman" paydo bo'ladi

Tokutomi Kendziro ana shunday «oilaviy roman» yaratishda tashabbuskor hisoblanadi. Bu janrning namunasi uning mashhur «Hototogisu» romani bo'lib, rus tiliga tarjima qilinganda «Yashamagan yaxshi» deb nomlanib, 1898 yilda chop etilgan. Bu asar markazida general Oyamaning qizi bo'lmish Namiko ismli ayol taqdiri turadi. Sil kasalligi tufayli u o'z eridan, dengiz ofitseridan majburan ajratiladi. Chunki eri tarafidan ota-onasi uni Kavasima urug'iga sog'lom avlod berolmaydi deb hisoblashgan.

Roman Yaponiyada katta muvaffaqiyat qozondi. Romanning muvaffaqiyati ikki sababga bog'liq. Birinchidan, o'sha davrda Yaponiyada roman ko'tarib chiqqan muammo — oila muammosi va undagi eski va yangi unsurlar to'qnashuvi nihoyatda keskin edi. Aslida, bu ikki avlodning, ya'ni, yangi rejim tengdoshlari va yangi Yaponianing yosh insonlari bilan eski, feudal Yaponiyadan chiqqan avlod o'rtasidagi to'qnashuv edi. Bunday to'qnashuvtar har yerda bo'lib turardi, lekin oilada ular ayniqsa keskin his qilinardi va ko'pincha nafaqat keskin nizolarga, balki to'liq halokatlarga ham olib kelardi. Yangi g'oyalarda tarbiyalangan yosh avlodga bu feudal xurofot devorini yorib o'tish nihoyatda qiyin bo'lgan, ayniqsa, hukumat bu eski qarashlarni qo'llab-quvvatlar, ular eski, sog'lom deb hisoblangan oila va jamiyat poydevorlarini saqlab qolishga intilardi.

Lekin o'sha davr uchun juda dolzarb mavzudan tashqari, romanning muvaffaqiyati uning sentimental uslubi bilan ham bog'liq edi. Namiko obrazi ushbu romanda nihoyatda ta'sirchan ohanglarda tasvirlangan.

1900 yilda uning «Kul» deb nomlangan kichik qissasi chiqadi. Shubhasiz, shu paytdan boshlab Tokutomi mavjud tuzumni tanqid qilish yo'lidan boradi. Buni «Minyusha» guruhining barcha a'zolari ham qilgan, lekin ular, ayniqsa ularning yetakchisi Tokutomi Soho, o'z e'tiborlarini ko'proq mavjud tuzumning kamchiliklarini fosh qilishdan ko'ra, keljakni qurishga qaratgan. Tokutomi Kendziro bu ma'noda boshqacha yo'l tutadi. U o'zining asosiy vazifasi sifatida jamiyat va siyosiy hayotdagi mavjud tartibsizliklar va muammolarni ochib tashlashni ko'radi.

Shuni ta'kidlash joizki, u o'z asarlarida mavjud tartiblarni yangi inson nuqtai nazaridan emas, balki qulagan eski rejim insoni nuqtai nazaridan tanqid qiladi.

Tokutomi Roka yapon jamiyatining barcha sinflarining vakillarini ko'rsatishni va bu jamiyatda mavjud bo'lgan barcha qarama-qarshiliklarni ochib tashlashni maqsad qiladi. U ilg'or burjua demokratiyasi va feudal reaksiyasining g'oyalari tushunchalari ostida yevropalashuv va millatchilik to'qnashuvini tasvirlashni o'laydi. Tokutomi konstitutsiya uchun kurashning keng ko'lamli manzarasini yaratishni va konstitutsiyaviy harakatning haqiqiy natijalarini ochib tashlashni, shuningdek, hukumat doiralari tomonidan konstitutsiya bayrog'i ostida xalqqa singdirilgan aldovlarni fosh qilishni orzu qiladi.

Qishloqda o'tkazgan yillari haqida Tokutomi Roka «**Tuproq chuvalchangining g'o'ldirashi**» («**Mimizu-no tavagoto**», 1913) to'plamiga kirgan asarlarida hikoya qiladi. U yapon dehqonining hayotini katta iliqlik va yumshoq hazil bilan tasvirlaydi, dehqonlarning patriarxal xarakterlarini madh etadi. «**Dehqonchilik**» («**No**») nomli ocherkida Roka yerda ishlashni dunyodagi barcha mashg'ulotlar ichida eng pokiza va adolatli ish deb e'lon qiladi.

Ammo tez orada Tokutomi Rokaga patriarxal-dehqon idealining utopik ekanligi ayon bo'ladi. U o'zining dehqonchilikdagi faoliyatining soxtaligini ham tushunib yetadi. «**Estet dehqonchasi**» nomli ocherkida u dehqonchilikdagi muvaffaqiyatsizliklari va qishloq aholisi uning ishlariga qanday ishonchsizlik bilan qaragini, ularni boy baronning zerikishdan qilgan ermaklari deb hisoblaganini achchiq kinoya bilan hikoya qiladi.<sup>4</sup>

Yozuvchining hayoti va ijodining so'nggi o'n yili chuqur ma'naviy inqiroz belgisi ostida o'tadi. Bu yillarda yozilgan asarlarining aksariyati avtobiografik bo'lib, ularda ruhiy sinish alomatlari yaqqol seziladi. Bu asarlar orasida «**O'lim soyasida**» («**Shi-no kage-ni**») romani va «**Yangi bahor**» («**Shinshun**») qissasi bor, bu qissada muallif yoshlik yillari va «**Xalq do'stlari jamiyat**» faoliyati haqida so'zlaydi.

<sup>4</sup> Пинус Е.М. Краткая история литературы Японии. Курс лекций. -Л.: Лен., 1975. Стр 71

Nihoyat, uning katta asari «**Fuji**» romani bo‘lib, u tugallanmay qolgan. Ushbu romanda yozuvchining hayotining so‘nggi davrida uni qamrab olgan umidsizlik hissi ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Конрад И. И. Японская литература в образцах и очерках. – Л., 1927. 553с
2. Конрад Н.И. Японская литература. От Кодзики до Токутоми – М.: Художественная литература, 1974. – 570 с.
3. Григорьева Т. П. К вопросу о развитии теории реализма в японской литературе // Японская литература. М.: Исследования и материалы, 1959. 147 с.
4. Григорьева Т. П. Японская литература XX века. М.: Художественная литература, 1983. 416 с.
5. Григорьева Т. П. Японская художественная традиция. М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», Институт востоковедения Академии наук СССР, 1979. 368 с
6. Пинус Е.М. Краткая история литературы Японии. Курс лекций. -Л.: Лен., 1975. Стр 120